



Linguocognitive aspect of verbs of intensity in English and Uzbek languages

Sherzod VALIJANOV¹

Namangan State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received June 2024

Received in revised form

10 July 2024

Accepted 25 July 2024

Available online

25 August 2024

Keywords:

intensification,
cognitive approach,
concept,
homonym,
styles,
universal,
uniqueness.

ABSTRACT

This article examines the lingua-cognitive characteristics of action verbs expressing intensity semantics in both English and Uzbek languages. These characteristics include the universal nature of action verbs, the emergence of new types of action verbs in the languages—such as the replacement of older verb forms with newer ones—the introduction of new forms, the adaptation of action verbs to various functional styles, homonymy among action verbs, and the intentional use of passive action verbs. These findings were identified through the course of the research.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss2/S-pp263-268>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Ingliz va o'zbek tillarida intensivlikni ifodalovchi harakat fe'llarining lingvokognitiv aspekti

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

intensifikatsiya,
kognativ yondashuv,
konsept,
omonim,
stillar,
universal,
unikaliya.

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida intensivlik semantikani ifodalovchi harakat fe'llarining lingvokognitiv xususiyatlari o'rganilgan. Tadqiqotni olib borishda intensivlikni ifodalovchi harakat fe'llarining lingvokognitiv xususiyatlariga quyidagilar kirishi aniqlandi, jumladan, harakat fe'llarining universal tabiatga egaligi, harakat fe'llarini yangi turlarining tillarga kirib kelishi, ya'ni eski fe'l shakllari o'rniga yangi fe'l shakllarining tilga kirib kelishi, harakat fe'llarining u yoki bu funksional stillarga dahldorligi, harakat fe'llarining

¹PhD Student, Namangan State University. E-mail: sherzodvalijonov@gmail.com

omonimlashuvi, majhul nisbatdagi harakat fe'llarining aktiv nisbat o'rnida maqsadli qo'llanishi.

Лингвокогнитивный аспект глаголов интенсивности в английском и узбекском языках

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:
интенсификация,
когнитивный подход,
концепт,
омоним,
стили,
универсальность,
уникальность.

В данной статье рассматриваются лингвокогнитивные характеристики глаголов действия, выражающих семантику интенсивности, в английском и узбекском языках. К таким характеристикам относятся: универсальный характер глаголов действия, появление в языках новых типов глаголов — замена старых глагольных форм новыми, внедрение новых форм в язык, адаптация глаголов действия к различным функциональным стилям, омонимичность глаголов действия, а также целенаправленное использование пассивных форм глаголов действия. Эти особенности были выявлены в ходе проведенного исследования.

KIRISH

Hammaga ma'lumki, turli sathdagi til birliklarini chog'ishtirma tadqiqini olib borishda ma'lum bir til oilalari doirasida o'tkazilishi bilan bir qatorda, turli tizimli tillarda ham qog'ishtirma tilshunoslik yo'nalishida qiyosiy asnodagi tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, ingliz va o'zbek tillarida intensivlik semantikani ifodalovchi harakat fe'llari va ularning lingvokognitiv xususiyatlari yuqorida keltirilgan tadqiqotlardan biri hisoblanadi. Qiyoslanayotgan tillarda fe'l so'z turkumini qiyosiy taxlilini olib borilgan bo'lishiga qaramay, intensivlik semantikani ifodalovchi harakat fe'llarining lingvokognitiv xususiyatlari tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tilshunos olim Shahriyor Safarov ta'kidlashicha "Kognitiv tilshunoslik atamasining mazmuni inglizcha "cognitive – bilishga oid" so'zi bilan bog'liq. Dunyoni bilish, uni idrok etish oddiy hodisa emas. Ayrim hollarda bilishni to'g'ridan to'g'ri fahmlash, tushunish harakatlari bilan bog'lab qo'yishadi. Ammo hayvonlarga ham qisman (oddiy shaklda bo'lsa) fahmlash, tahlil qilish va umumlashtirish qobiliyati xos ekanligi ma'lum. Shu sababli bilish faoliyati haqida gap ketganda, faqatgina cogitation (lotincha), ya'ni "aql, tafakkur" hodisasini tasavvur qilish bilan cheklanmasdan, balki cogitatorium – tafakkur faoliyati shaxsini hamda bu faoliyat bilan bog'liq bo'lgan barcha turdagi nomenal (ijtimoiy, madaniy, lisoniy) hodisalarni ham inobatga olish kerak bo'ladi." [1, 10-11]

V.Z.Demyankovning fikricha, "Kognitiv tilshunoslikning asosiy vazifasini inson tomonidan tilni o'zlashtirish mexanizmlari hamda bu mexanizmlarning tarkibini«sistemaviy tasvirlash va tushuntirishdan iborat» deb ta'riflashi bundan guvohlik beradi. Haqiqatan, kognitiv tahlilda olamni bilish jarayonida yuzaga keladigan mantiqiy (mental) strukturalarning lisoniy ifoda topishini ta'minlovchi mexanizmlar qamrovidagi uslub va vositalar tadqiqi asosiy o'ringa ko'chadi". [2. 17]

Professor Shahriyor Safarov kognativ yondashuv asosida til birliklarining kategoriyalarga bo'linishi, tasavvur va idrok qilish orqali til va dunyoni bilish kabi tushunchalar yotadi. Kognativ tilshunoslik sohasi vakillarining fikricha, "moddiy dunyo idroki, ayni paytda, idrok etilayotgan predmet-hodisalar haqida tushuncha tug'ilishi, keyinchalik ushbu tushunchaning mental namuna – konsept sifatida shakllanib, moddiy ko'rinishni taqazo etadi"[3, 41]

D.Ashurova ta'kidlashicha, "Konsept – yaxlit mental mohiyatga ega bo'lib, olam tasvirining asosiy qismini tashkil etadi hamda shaxs nuqtida madaniy ahamiyat kasb etib, lingvomadaniy muloqotni ta'minlaydi. Konsept xalqaro harakatga ham ega bo'lib, har bir tilda o'ziga xos birliklar orqali verballashadi."[4,26-33]

D.S.Xudoyberdiyeva fikricha, "Konsept ko'p qirrali va ko'p qatlamli mental tuzilma bir vaqtning o'zida psixologik va kognitiv-semantik va lingvokulturologik jihatlarni bayon etadi". [5,12-19]

S.Muhamedovanning fikricha, "Konsept kognitiv lingvistikaning markaziy tushunchasi hisoblanadi. Konsept quyidagi turlarga bo'linadi: 1) ontologik, 2) pragmatik, 3) aprior, 4) lingvokreativ, 5) konsept-universaliya, 6) konsept-unikaliyalar kabi oltita tipga ajratadi". [6, 189-193]

A.E.Mamatovning fikricha "Kognitiv tilshunoslikning predmeti til va nutqda aniq konseptlarni aks ettiruvchi leksik, frazeologik birliklar, fikrlar va matnlardir. Konseptning qanday tomonlari, qatlamlari, komponentlari tilning semantik maydoniga kirish, qanday qilib ularni kategoriyalashtirish, ma'lum tilning qaysi qismlarida yuzaga kelishi, namoyon bo'lishi kognitiv lingvistikada o'z aksini topadi." [7,9-10]

So'z ma'nosini anglashda faqat uning semantik tuzilmasini bilishimiz kamlik qiladi. Biz muayyan tilda so'zlashuvchi odamlarning tafakkur xususiyatlari, fikrlash tarzlari va dunyoni til unsurlari yordamida bilish xususiyatlaridan ham xabardor bo'lishimiz lozim. Chunki mazkur vazifalarni so'zlarning sof lingvistik tahliliga yuklash qiyin. Bu esa til hodisasining tabiatini, mohiyatini chuqurroq tushunish uchun unda so'zlashuvchining borliqni bilishi va uni ongida "pishirib", o'z tilida (nutqida) tinglovchiga bekamu ko'st uzatishi bilan bog'liq masalalarni ham tadqiqotlarimiz kun tartibiga qo'yishni talab qilmoqda.

Professor D. Ashurova o'z maqolasida kognitiv tilshunoslikning maqsad va vazifalari, o'z yechimini kutayotgan dolzarb masalalarni ko'rsatib o'tadi. Olimaning qayd etishicha "Hozirgi davrda shakllanib borayotgan kognitiv tilshunoslikning kognitiv fonologiya, kognitiv grammatika, kognitiv leksikologiya, kognitiv semantika kabi yangi yo'nalishlari vujudga kelganligi ta'kidlanadi. Kognitiv yondashuv asosida so'z turkumlari, til birliklarining kategoriyalarga bo'linishi va konseptualizatsiyalashuvi, til va dunyoni bilish kabi tushunchalar yangicha talqinlarga ega bo'ladi. Kognitiv tilshunoslikning asosiy tushunchalari tizimidan freym, ssenariy, skript, kategoriyalashtirish, konsept, konseptualizatsiya, kognitiv struktura, kognitiv metafora kabilar o'rin olmoqda. Mazkur yo'nalishning asosiy tadqiq metodlariga freymlar asosida tahlil qilish, modellashtirish (kognitiv xaritasini yaratish), konseptual tahlil singarilar kiradi". [8,33]

Konseptlar inson ongida nafaqat so'zning lug'aviy ma'nolari asosida, balki shaxsiy hamda butun bir xalqning madaniy-tarixiy tajribasidan kelib chiqib paydo bo'ladi. Tajriba qancha boy bo'lsa, konseptning chegarasi shunchalik keng bo'ladi. Aynan

shunday holatda konsept o'zini har tomonlama namoyon eta oladi. Zotan, konsept dunyoni bilish va u haqda o'z tasavvuriga ega bo'lish demakdir [9. 2.8].

NATIJALAR VA TAHLILLAR

Qiyoslanayotgan tillarda biz ko'p hollarda intensivlik konseptual semantikasini ifodalovchi harakat fe'llarining biron bir madaniy komponentini o'zida mujassamlantirganligining guvohi bo'lamiz, ya'ni ularda quyidagi xususiyatlar ko'zga tashlanadi:

1. Harakat fe'lining tillar tizimidagi maqomi (Bu omil harakat fe'llarining universal tabiatidan dalolat beradi, chunki u kundalik muloqot uchun zarur hisoblanadi).

2. Harakat fe'lining yangi turining tillarga kirib kelishi. Bu holat harakat fe'llarini yangi turlarining tillarga kirib kelishi, ya'ni eski fe'l shakllari o'rniga yangi fe'l shakllarining tilga kirib kelishi va uning me'yorlashuvi fe'l tizimida kechayotgan lingvokognitiv va lingvokulturologik jarayonlardan dalolat beradi. Demak, eski harakat fe'li tillarda so'zlashuvchilarning muloqot ehtiyojini to'la qondira olmay qolganda, yoki siyqalashib ketganda, til tizimida uning o'rnini yangisi egallaydi, lekin eski shakl ham cheklangan bo'lsada qo'llanishda davom etaveradi.

3. Harakat fe'llarining u yoki bu funksional stillarga (yoki sheva va variantlarga) dahldorligi; yuqorida keltirilgan harakat fe'llarining yangi turlarining funksional stillarda keng qo'llanadi, bu omil esa ularda " funksional sinonimlik" jihatlar mavjud ekanligini ko'rsatadi. Shunday qilib, intensivlik konseptual semantikasini ifodalovchi harakat fe'llari turlarining sinonimlashuvi hamda tillardagi ularning tizimlarida kechayotgan lingvokulturologik jarayonlarning bevosita natijasidir.

4. Harakat fe'llarining omonimlashuvi, masalan, qanoti chiqmoq (qush bolasining qanoti chiqdi va tez-tez borib turmoq ma'nolari), qanot bog'lab uchmoq (qushga o'xshab o'ziga qanot bog'lab uchmoq va tez bormoq), o'tib ketmoq (U bu yerdan o'tib ketdi) va U sherigidan o'tib ketdi. Ma'nolariga e'tibor qarating. Bunday hollarda fe'lining nisbat shakllarining neytrallashuvi jarayoni kuzatiladi. Natijada, ularning omonimiyasi xosil bo'ladi. Masalan, "outrun" yoki "outride" harakat fe'llari boshqa noharakat fe'llari bilan omonimik munosabatga kirishib, kamida ikkita ma'noni ifodalayapti: 1 o'zib ketishni, 2. Nimaningdir son va miqdor jihatdan yetishmay qolishligini ifodalayapti, ularning shakli bir xil, ya'ni omonimik ko'rinishga ega, lekin ma'nosi har xil, shu bois ular tilni o'rganish jarayonida o'rganuvchilar uchun katta muammolar tug'diradi.

5. Majhul nisbatdagi harakat fe'llarining aktiv nisbat o'rnida maqsadli qo'llanishi. Masalan, Oldinga yurmoq (aktiv) qurilmasi, "Oldinga yurilmoq" passiv qurilmasi yoki "to overcome" aktiv qurilmasi "to be overcome" passiv qurilmasi bilan maqsadli almashtiriladi. Bunday holatda, muloqot jarayonida aktiv fe'l shakli o'rniga odatda majhul nisbat shakli qo'llaniladi, buning lingvokulturologik jihati shundaki, muloqotdoshlar aktiv nisbat o'rniga majhul nisbatni quyidagi hollarda maqsadli qo'llanaydilar:

- 1) ish harakatni bajaruvchi umuman notanish bo'lgan holatda
- 2) ish harakatni bajaruvchi umuman mavjud bo'lmagan holatda
- 3) ish harakatni bajaruvchi gapning egasini sir tutish
- 4) so'zlovchi tomonidan yoshi ulug', tinglovchi odamga to'g'ridan to'g'ri fikr-mulohaza, ko'rsatma yoki topshiriq bera olmaslik odobini saqlash
- 5) so'zlovchi tomonidan hurmatli odamga to'g'ridan to'g'ri fikr-mulohaza, ko'rsatma yoki topshiriq bera olmaslik odobini saqlash

6) so'zlovchi tomonidan lavozimi yuqori odamga to'g'ridan to'g'ri fikr-mulohaza, ko'rsatma yoki topshiriq bera olmaslik odobini saqlash

7) so'zlovchi tomonidan boy-badavlat odamga to'g'ridan to'g'ri fikr-mulohaza, ko'rsatma yoki topshiriq bera olmaslik odobini saqlash

8) so'zlovchi tomonidan berilayotgan ko'rsatma yoki topshiriqning umumiy ekanligini ta'kidlash

9) so'zlovchi tomonidan berilayotgan ko'rsatma yoki topshiriqning ahamiyatini oshirish, ta'kidlash

10) so'zlovchi tomonidan berilayotgan ko'rsatma yoki topshiriqning adresatga qattiq botmasin degan maqsadda

11) so'zlovchi tomonidan berilayotgan ko'rsatma yoki topshiriqning adresatga istihola qilib, tortinib, iymonib yetkazish maqsadida.

12) Gapning ta'kidlanadigan qismini bo'rtirish maqsadida (ya'ni gap urg'usini joyiga qo'yish maqsadida)

13) Noma'lum yoki keraksiz agentlarni (to'ldiruvchi, egalarni) tushirib qoldirish maqsadi

14) Kimnidir ayblashdan qochish

15) Gapdagi voqealikni obyektiv ifodalash maqsadida

16) Odatiy qo'llanishga sodiq qolish maqsadida

17) Ma'lum ma'noni yashirish maqsadida

18) Javobgarlikdan qochish maqsadida

19) Soxta obyektivlik yaratish maqsadida

XULOSA

Shuni ta'kidlash lozimki, tillarda (harakat) fe'llarining aktiv nisbatda qo'llanilmaydigan zamonlarning bor-yo'qligi ham nisbat shakllarining lingvokulturologik jihatlarini mavjudligidan dalolat beradi. Masalan ingliz tilida harakat fe'llari kelasi davomli zamon, o'tgan kelasi davomli zamon, hamda to'rta perfektli zamonlarda jami bo'lib oltita zamonda passiv nisbat shaklda qo'llanilmaydi chunki bu zamonlarning passiv shakllari mavjud emas, shuning uchun mazkur zamonlarga mantiqan (semantikasiga ko'ra) mos fe'l shakllarini shu zamonlarning aktiv shakllilari orqali berish qonuniyatdir, uning boshqa yo'li yo'q. Ingliz tilidan farqli o'laroq o'zbek tilida ham harakat fe'llari boshqa har qanday fe'l kabi hamma zamonlarda passiv shaklda bema'lol qo'llanaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor 2006 - 11b
2. Демьянков В.З. Когнитивная лингвистика как разновидность интерпретирующего подхода// Вопросы языкознания, 1994, №4. –с. 17 33
3. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor 2006.- 41 b
4. Ашурова.Д.У.Новые подходи к лингвистике текста. - хорижий филология. - №3. - Самарқанд. - 2011. -26- 33 б
5. Xudoyberganova.D.S. O'zbek tilida badiiy matnlaning antroposentrik talqini. – Toshkent, 2015. – 12 bet
6. Muhamedova.S. Kognitiv lingvistika: vujudga kelishi, asosiy tushunchalari va yo'nalishlari. System-struktur tilshunoslik muammolari. Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. Samarqand, 2010. -189-191

7. Маматов А.Э. Языковая картина мира как когнитивный феномен. Хорижий тил таълимининг когнитив-прагматик тамойиллари. - Самарқанд, 2007.-9-10
8. Ашурова.Д.У. Новые подходы к лингвистике текста. - хорижий филология. - №3. - Самарқанд. - 2011. -26- 33 б
9. Sayidirahimova. N.S. kognitiv tilshunoslikda “tushuncha” va “konsept”, ularni tahlil qilish usullari. Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2022, No 2.